# "Jadidlar izidan" respublika tanlovining viloyat bosqichida qo‘shtepalik Dilnura Rohataliyeva ham g‘olib bo‘ldi

Xabaringiz bor, buyuk jadid, alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma’naviy merosini keng targ‘ib qilish orqali o‘quvchilarni kitobxonlikka jalb etish, ularda mustaqil va tanqidiy fikrlash hamda vatanparvarlik ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida maktab o‘quvchilari o‘rtasida "Jadidlar izidan" tanlovi tashkil etilgandi.

Ushbu tanlovning viloyat bosqichida 38 nafar 6-10-sinf o‘quvchilari uch shart asosida bellashdilar.

Belgilangan tartib asosida bellashib, qizg‘in va murosasiz kechgan bahslarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan Farg‘ona shahridagi 46-maktabning 8-sinf o‘quvchisi Farzona Yo‘ldoshaliyeva hamda Qo‘shtepa tumanidagi 20-IDUM 9-sinf o‘quvchisi Dilnura Rohataliyeva tanlovning respublika bosqichida qatnashish huquqini qo‘lga kiritishdi.


MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI
Jadidlar
ABDULLA
AVLONIY
IS'HOQXON
IBRAT
ABDURAUF
FITRAT




2024-11-15 08:32:17